

Ahad Raymberdiyev

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

*“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrası tayanch
doktoranti*

@raymberdiyevahad96@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Imom Abu Iso at-Termiziyning mashhur “Sunan” asarida keltirilgan “Muddassir” surasiga oid hadislar va ularning talqinlari o‘rganiladi. Suraning nozil bo‘lish sabablari, unda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar hamda Rasululloh ﷺ ning da‘vat jarayonidagi ilk bosqichlari haqida mufassal ma‘lumot beriladi. Shuningdek, hadislarining mazmuni asosida musulmon jamiyatidagi ma‘naviy uyg‘onish, Allohni ulug‘lash, axloqiy poklik, shirkdan yiroqlik, mas‘uliyatni yelkaga olish kabi jihatlar keng tahlil qilinadi. Bugungi kunda ham “Muddassir” surasi musulmonlar hayoti uchun dolzarb bo‘lib, insonni ma‘naviy poklanishga, halollik va iymon mustahkamligiga chorlaydi.

Kalit so‘zlar

Imom Termiziy, Sunan, tafsir, Muddassir surasi, hadis, nozil bo‘lish sababi, da‘vat, poklik, shirk, mas‘uliyat, axloqiy-tarbiyaviy saboqlar.

**ТАФСИР СУРЫ «АЛЬ-МУДДАССИР» В СБОРНИКЕ «СУНАН» ИМАМА
АТ-ТИРМИЗИ**

Аннотация

В данной статье исследуются хадисы, связанные с сурой «аль-Муддассир», приведённые в сборнике «Сунан» Имама Абу Исы ат-Тирмизи. Особое внимание уделяется причинам ниспослания суры, её главным идеям, а также роли этих откровений в начале пророческой миссии Мухаммада ﷺ. Хадисы подчёркивают важность духовного пробуждения, возвеличивания Аллаха, нравственной чистоты, отказа от идолопоклонства и принятия ответственности. В статье показана не только историческая, но и современная значимость суры «аль-Муддассир», которая продолжает служить источником духовного и нравственного воспитания мусульман.

Ключевые слова

Имам ат-Тирмизи, Сунан, тафсир, сура аль-Муддассир, хадис, причины ниспослания, пророческая миссия, духовное пробуждение, чистота, ширк, ответственность, нравственное воспитание.

THE TAFSIR OF SURAH AL-MUDDATHHIR IN IMAM AL-TIRMIDHI'S
“SUNAN”

Annotation

This article explores the Hadiths related to Surah al-Muddaththir as recorded in Imam Abu Isa al-Tirmidhi's renowned work, “Sunan.” It analyzes the circumstances of revelation (asbāb al-nuzūl), the central themes of the Surah, and its role in the earliest stages of the Prophet Muhammad's ﷺ mission. The Hadiths emphasize spiritual awakening, glorification of Allah, moral purity, avoidance of shirk, and the acceptance of responsibility as core messages of the Surah. The study highlights both the historical and contemporary significance of Surah al-Muddaththir, demonstrating how it continues to inspire Muslims towards spiritual purification, sincerity, and moral strength.

Keywords

Imam al-Tirmidhi, Sunan, tafsir, Surah al-Muddaththir, Hadith, reasons of revelation, prophetic mission, spiritual awakening, purity, shirk, responsibility, moral-educational lessons.

Kirish

Qur'oni karim suralari tafsiri islom tafakkurining eng muhim sohalaridan biridir. Har bir oyat va sura musulmonlar hayotiga yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. “Muddassir” surasi Qur'oni karimning ilk nozil bo'lgan suralaridan biri bo'lib, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga payg'ambarlik mas'uliyatini yelkaga olish va odamlarni ogohlantirish vazifasini yuklagan oyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu sura o'z mazmuni bilan islom da'vatining boshlanish nuqtasi sifatida ulkan ahamiyatga ega.

Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy (rahimahulloh) o'zining mashhur “Sunan” asarida Qur'on tafsiriga oid hadislarni jamlab, musulmon olamiga bebaho manba qoldirgan. Jumladan, “Muddassir” surasi tafsiri ham hadislar asosida sharhlangan bo'lib, bu suraning nozil bo'lish sabablari, oyatlarning mazmuni va ularning musulmonlar hayotidagi ahamiyatini ochib beradi. Bugungi kunda dunyo musulmonlari turli ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sinovlar qarshisida turibdi. Shunday sharoitda hadislarning mazmun-mohiyatini anglash, ularni ilmiy tahlil qilish va hayotga tatbiq etish nihoyatda dolzarbdir. Chunki hadislar musulmon jamiyatini adolat, taqvo, sabr, ilm va rahmatga chorlovchi manba sifatida doimo o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Shu bois ushbu maqolada Imom Termiziyning “Sunan” asaridan keltirilgan to'rtta hadis asosida ilmiy tahlil olib boriladi. Maqolada ushbu hadislarning arabcha matni, tarjimasi, sharhi va izohi beriladi. Shuningdek, ularning mazmuniy jihatlari, tarixiy kontekstdagi o'rni hamda bugungi kundagi ahamiyati haqida ham alohida to'xtalib o'tiladi.

Asosiy qism.

Hadislar va Qur’oni Karim oyatlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini izohlaydi va to‘ldiradi. Bu jihatdan Rasululloh (s.a.v) hadislarida keltirilgan fitna, adolat, taqvo va ijtimoiy mas’uliyatga doir ko‘rsatmalar Qur’oni Karimning asosiy g‘oyalari bilan uyg‘unlikda tushuniladi. Ulamolar ta’kidlaganidek, hadislarini to‘g‘ri idrok qilish Qur’on oyatlarini to‘g‘ri anglashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda Mudassir surasi haqida ham to‘xtalib o‘tish muhim. Bu sura Makkada nozil bo‘lgan ilk suralardan bo‘lib, Bu oyatlar Muhammad (s.a.v)ga risolat yuklanganini va uni butun insoniyatni haq yo‘lga chorlashga da’vat etishini bildiradi. Demak, Islomning boshlanishi ham poklik, adolat va ogohlantirish tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lgan.

[3325] بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ حَدَّثَنَا عَبْدُ اللَّهِ بْنُ حَمِيدٍ أَخْبَرَنَا عَبْدُ الرَّزَّاقِ حَدَّثَنَا مُعَمَّرٌ عَنْ الزُّهْرِيِّ عَنْ أَبِي سَلَمَةَ [3325] عَنْ جَابِرِ بْنِ عَبْدِ اللَّهِ رَضِيَ اللَّهُ تَعَالَى عَنْهُمَا قَالَ سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ وَهُوَ يَحْدُثُ عَنْ فِتْرَةِ الْوَحْيِ فَقَالَ فِي حَدِيثِهِ بَيْنَمَا أَنَا أَمْشِي سَمِعْتُ صَوْتًا مِنَ السَّمَاءِ فَرَفَعْتُ رَأْسِي فَإِذَا الْمَلِكُ الَّذِي جَاءَنِي بِحِرَاءٍ جَالِسٍ عَلَى كُرْسِيِّ بَيْنَ السَّمَاءِ وَالْأَرْضِ فَجَنَّثَتْ مِنْهُ رَعْبًا فَرَجَعْتُ فَقُلْتُ زَمَلُونِي زَمَلُونِي فَذَرُونِي فَأَنْزَلَ اللَّهُ عَزَّ وَجَلَّ { يَا أَيُّهَا الْمُدَّثِّرُ قُمْ فَأَنْذِرْ } إِلَى قَوْلِهِ { ... وَالرَّجْزُ فَاهْجِرْ } قَبْلَ أَنْ تَقْرُضَ الصَّلَاةَ

Jobir ibn Abdulloh (r.a.) rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v) vahiy uzilib qolgan davr haqida gapirar ekan, dedilar: “Bir kuni men yurib ketayotgan edim, osmonda bir ovoz eshitdim. Boshimni ko‘tarsam, Hiro tog‘ida menga kelgan farishta osmiyu zamin orasida kursida o‘tirar edi. Men qo‘rqib ketdim va uyga qaytib: ‘Meni o‘rab qo‘yinglar, meni o‘rab qo‘yinglar!’ dedim. Shunda Alloh taolo: ‘Ey (libosiga) burkangan kishi, tur va ogohlantir! ... Butlardan yiroq bo‘l!’ (Muddassir, 1–5) oyatlarini nozil qildi. Bu voqea namoz farz bo‘lishidan oldin sodir bo‘lgan.”

Bu hadis Rasululloh (s.a.v)ga vahiyning bir muddat uzilib turishi va so‘ngra yana qaytganini ko‘rsatadi. Payg‘ambarimizning qo‘rquvi tabiiy hol bo‘lib, bu risolat vazifasining og‘irligini bildiradi. Har bir musulmon bu hadisdan shuni o‘rganadi: insoniyatni ogohlantirish va haqiqatga chaqirish katta mas’uliyatdir. Bu mas’uliyat faqat payg‘ambarlar zimmasida emas, balki musulmonlarning ham bir-biriga nasihat qilishida namoyon bo‘ladi.

[3326] حَدَّثَنَا ابْنُ حَمِيدٍ حَدَّثَنَا الْحَسَنُ بْنُ مُوسَى عَنْ أَبِي لَهْيَعَةَ عَنْ دَرَّاجٍ عَنْ أَبِي الْهَيْثَمِ عَنْ أَبِي سَعِيدٍ عَنْ [3326] رَسُولِ اللَّهِ ﷺ قَالَ: الصَّعُودُ جَبَلٍ مِنْ نَارٍ يَتَّصِدُ فِيهِ الْكَافِرُ سَبْعِينَ خَرِيفًا ثُمَّ يَهْوِي بِهِ كَذَلِكَ فِيهِ أَبَدًا

Abu Sa‘id al-Xudriy (r.a.) rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v) dedilar:

“Soud jahannamdagi olovdan bo‘lgan tog‘dir. Kofir u tog‘ga yetmish yil davomida ko‘tariladi, keyin pastga qulashi bilan yana yuqoriga chiqishga majbur bo‘ladi. Bu azob u uchun abadiydir.”

Bu hadis do‘zax azobining dahshatini ko‘rsatadi. “Soud tog‘i” ramziy ma’no bo‘lib, u tugamaydigan mashaqqat va abadiy azobni ifodalaydi. Ulamolar buni insonning imonsiz yashagan hayoti natijasi sifatida talqin qilganlar. Hadis insonni imonsizlik va kufrdan ogohlantiradi. Shuningdek, gunohdan tiyilish, halol hayot kechirish, taqvoga intilish zarurligini eslatadi.

[3327] حدثنا بن أبي عمر حدثنا سفيان عن مجالد عن الشعبي عن جابر بن عبد الله قال قال ناس من اليهود [3327] ... لأناس من أصحاب النبي ﷺ هل يعلم نبيكم عدد خزنة جهنم

“Yahudiylardan bir guruh sahobalarga: ‘Sizning payg‘ambaringiz jahannam qo‘riqchilarining sonini biladimi?’ deb so‘rashdi. Sahobalar: ‘Biz bilmaymiz, ammo Payg‘ambarimizdan so‘raymiz’, deb javob berishdi. Keyin Rasululloh ﷺ ulardan: ‘Jannatning tuprog‘i nima?’ deb so‘radi. Ular javob topa olmay jim qolishdi. So‘ngra: ‘Oq un (dermak)dan tayyorlangan non’, deb aytishdi. Rasululloh ﷺ: ‘Ha, jannatning tuprog‘i dermakdir’, dedilar.”

Bu hadisda yahudiylarning musulmonlarga fitna va shubha solishga uringani ko‘rsatiladi. Rasululloh (s.a.v) ularga savol bilan javob qaytarib, ularning ilmsizligini ochib qo‘ygan. Bu musulmonlarga ilmiy va hikmatli javob berishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Hozirgi davrda ham turli soxta da‘volar, shubha va fitnalar mavjud. Ushbu hadis musulmonlarga har qanday shubhali savolga ilm, hikmat va sabr bilan yondashishni o‘rgatadi.

[3328] حدثنا الحسن بن الصباح البزار حدثنا زيد بن حباب أخبرنا سهيل بن عبد الله القطعي ... عن أنس بن مالك عن رسول الله ﷺ أنه قال في هذه الآية { هو أهل التقوى وأهل المغفرة } قال قال الله عز وجل: أنا أهل أن أتقى ... فمن اتقاني فلم يجعل معي إلهًا فأنا أهل أن أغفر له

Anas ibn Molik (r.a.) rivoyat qiladi: Rasululloh ﷺ dedilar:

“Alloh taolo (Zumar, 35) oyatini sharhlab aytdi: ‘Men taqvodor bo‘lishga loyiq Zotman. Kim Menga shirk qo‘shmasdan taqvo qilsa, Men unga mag‘firat qilishga loyiqman.”

Bu hadis Allohning cheksiz rahmatini ko‘rsatadi. Shirkdan uzoq bo‘lish va taqvo bilan yashash Allohning mag‘firatiga eltuvchi eng muhim omillardandir. Insoniyat ko‘plab ma‘naviy inqirozlar ichida yashamoqda. Ushbu hadis musulmonlarga umid bag‘ishlaydi, ularni tavba va taqvoga chorlaydi.

Muhokama

Hadis ilmi va Qur‘oni Karim oyatlari o‘zaro uyg‘unlikda insoniyat uchun hayotiy dasturulamal bo‘lib kelgan. Yuqorida keltirilgan hadislar ham, Mudassir surasi oyatlari ham musulmonlarni imon, taqvo va ibodatga chorlovchi buyuk xitobdir. Ularning birgalikda tahlili nafaqat diniy-ma‘rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy hamda axloqiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Payg‘ambarimiz (s.a.v) Hiro tog‘ida ilk vahiy kelganidan keyin ma‘lum vaqt tanaffus bo‘lgan va bu orada Rasululloh (s.a.v) ruhiy jihatdan og‘ir kechinmalarni boshdan kechirgan edilar. Hadisda zikr etilishicha, Jabroil alayhissalom yana ko‘rinib, Mudassir surasining ilk oyatlari nozil qilingan. Bu voqea bizga shuni ko‘rsatadiki, vahiy insoniyat hayotida rahmat va hidoyat manbaidir. Payg‘ambar ﷺ ham inson sifatida qo‘rquv va hayajon his qilganlari, Alloh taolo esa u zotni tasalli berib, ulkan risolat

vazifasiga tayyorlaganini bilib olamiz. Bu bugungi musulmonlarga ham ruhiy barqarorlik sabogʻidir.

Ikkinchi hadisda keltirilgan “As-suʻud” - jahannamdagi togʻ tasviri musulmonlarga ogohlantiruvdir. Bu azob tasvirlari inson qalbida Allohdan qoʻrqish, gunohdan saqlanish tuygʻusini kuchaytiradi. Qurʻonda ham jahannam azoblari turli shakllarda tasvirlanib, insonni gunohdan qaytarishga xizmat qiladi. Bugungi kunda bu ogohlantirishlar faqat rivoyat sifatida emas, balki tarbiyaviy vosita sifatida qaralishi kerak. Chunki doʻzax haqida oʻylash, odamni gunoh ishlardan tiyishga kuchli turtki beradi.

Uchinchi hadis yahudiylarning musulmonlarni ilmiy savol bilan chalgʻitishga uringanini koʻrsatadi. Sahobalar bilmagan narsani “bilmaymiz” deb eʼtirof qilganlari - ilmiy halollikning namunasi. Paygʻambar ﷺ esa ularga Qurʻon ilmi orqali mukammal javob qaytarganlar. Bu voqea bizga ilmiy masalalarda oʻzbilarmonlikka yoʻl qoʻymaslikni, ilmni manbadan olishni, bilmagan narsani mutaxassisga murojaat qilib bilib olishni oʻrgatadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda diniy masalalar boʻyicha notoʻgʻri, ekstremistik fikrlar tarqalayotgani fonida bu hadisning saboqlari juda muhimdir.

Toʻrtinchi hadisda “U taqvodorga ham, magʻfirat berishga ham haqlidir” oyatining sharhi keltiriladi. Alloh taolo shirk qilmagan, taqvo yoʻlida boʻlgan insonni albatta magʻfirat qilishini bildirgan. Bu musulmon qalbiga umid va tasalli beradi. Chunki inson xato qilishi tabiiy, ammo tavba bilan Allohning rahmatiga qaytish imkoniyati ochiqdir. Bu hadis bugungi jamiyatda ham odamlarga ruhiy quvvat, kelajakka iymonli nigoh bilan qarash tuygʻusini mustahkamlaydi.

Hadislar va Mudassir surasida zikr etilgan asosiy xatarlardan biri - ibodatni tark etish, miskinlarga yordam qilmaslik, botil ishlarda ishtirok etish va oxiratni inkor qilishdir. Aynan shu amallar bugungi jamiyatdagi fitna ildizlarini ham koʻrsatadi. Fitna - bu faqat urush yoki ijtimoiy notinchlik emas, balki insonning imonini susaytiruvchi, uni dunyoviy lazzatlarga oʻrgatib qoʻyuvchi barcha omillardir.

Bugun yoshlar orasida namozni ado etmaslik, sadaqaga beparvolik, jamiyatda maʼnaviy boʻshliq, gʻarbona turmush tarzi ortidan quvish, internet orqali tarqalayotgan buzuk gʻoyalar - bularning barchasi fitnaning zamonaviy shakllaridir. Hadislar musulmonlarni ana shunday xavfli yoʻllardan asraydi.

Agar hadislar va Qurʻon oyatlaridagi ogohlantirishlarga amal qilinsa, jamiyatda:

- ibodat mustahkamlanadi;
- taqvo va saxovat keng tarqaladi;
- ijtimoiy adolat mustahkam boʻladi;
- insonlar bir-biriga yordam qoʻlini choʻzadi;
- fitna va jaholatga qarshi mafkuraviy immunitet kuchayadi;

Xulosa

Yuqorida keltirilgan hadislar va Mudassir surasi oyatlari insoniyat hayotining eng muhim ma'naviy masalalariga doir chuqur saboqlarni o'zida mujassam etgan. Ularning har biri alohida tahlil qilinganida ham, birgalikda qaralganda ham musulmonlar uchun hayotiy dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, Rasululloh (s.a.v)ning vahiy jarayonidagi holatlari Qur'oni Karimning ilohiy kelib chiqishini, uning insoniyat uchun rahmat sifatida yuborilganini yana bir bor tasdiqlaydi. Payg'ambarimizning vahiy oldida his qilgan qo'rquv va hayajoni, keyinchalik "Ey libosga burkangan zot, tur va ogohlantir!" degan ilohiy amr bilan mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari bizga buyuk saboqdir. Bu voqea shuni anglatadiki, Alloh taolo odamlarni hidoyat qilish uchun payg'ambarlar yuboradi va ularga ilohiy quvvat beradi.

Ikkinchidan, "As-su'ud" haqidagi hadis va jahannam azobining tasviri inson qalbida qo'rquvni uyg'otib, uni gunohdan tiyishga chorlaydi. Bunday hadis va oyatlar musulmonni faqatgina do'zaxdan qo'rqitish uchun emas, balki uni to'g'ri yo'lga qaytarish, qalbida Allohdan qo'rqish va taqvonni mustahkamlash uchun kelgan. Shunday qilib, azob tasvirlari tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Uchinchi hadisda yahudiylar musulmonlarni ilmiy savol bilan chalg'itmoqchi bo'lishganida sahobalarning "biz bilmaymiz, nabiylimizdan so'raymiz" deb javob berishlari ilmiy halollikning yuksak namunasi hisoblanadi. Payg'ambarimiz ﷺ esa ularning hiylasiga Qur'on va ilohiy bilim orqali mukammal javob berib, musulmonlarni ilmdagi qat'iyatga o'rgatganlar. Bu biz uchun ham muhim saboqdir: ilmiy masalalarda bilmagan narsani tan olish - kamchilik emas, balki fazilatdir.

To'rtinchi hadis esa Allohning rahmati va mag'firati naqadar keng ekanini ko'rsatadi. Alloh taolo taqvodorlik qilgan, shirkdan saqlangan insonni albatta kechiradi. Bu oyat va hadis musulmon qalbida doimo umid uyg'otadi, insonni gunohdan qaytishga, tavgaga chorlaydi. Bugungi kunda odamlar orasida ruhiy tushkunlik, umidsizlik ko'paygan bir paytda ushbu hadis va oyatlar qalblarga tasalli beruvchi eng buyuk manbadir.

Bundan tashqari, Mudassir surasida zikr etilgan asosiy ogohlantirishlar - namozni tark etish, miskinlarga yordam qilmaslik, botil ishlarda qatnashish va oxiratni inkor qilish - bugungi jamiyatimiz uchun ham o'ta dolzarbdir. Agar inson bu illatlardan saqlanmasa, u nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham fitna va ma'naviy halokat sari yetaklaydi. Shu bois hadis va oyatlar insonlarni ogohlantiruvchi, ularni to'g'ri yo'lga soluvchi ilohiy hidoyatdir.

Umumiy xulosa shuki, hadislar va Mudassir surasi oyatlari musulmonlar uchun nafaqat diniy dalil, balki hayotiy dasturulamal, ma'naviy yo'l-yo'riq va jamiyatni mustahkamlovchi asosiy omildir. Ular insonni Allohga yaqinlashtiradi, jamiyatni fitna va halokatdan asraydi, qalblarda taqvo va saxovatni mustahkamlaydi. Agar

musulmonlar hadis va Qur'on oyatlaridan saboq olib, ularga amal qilsalar, bugungi jamiyatda ham barqarorlik, tinchlik va ma'naviy yuksalish ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I.
2. Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy./ Tarjimon, sharh va izohlar muallifi: Mirzo Kenjabek. – T.: Sharq, 2010.
3. Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risala, 1996. – J. III.
4. Shamsiddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkirat al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
5. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahziyb. Dorul fikr, 1984. J. 9.
6. Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a'laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 18. – B. 513;